

## YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SAVOD O'RGATISHNING AFZALLIKLARI

**\*\*Muallif:\*\*** Muhammadjonova Kamola Xasanboy qizi,  
Andijon davlat pedagogika instituti,  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

### *Annotatsiya*

Ushbu maqolada savod o'rgatish jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning dolzarbligi, ularning nazariy asoslari hamda amaliy qo'llanilishdagi afzalliklari yoritilgan. Yangi texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, og'zaki va yozmanutqni rivojlantirishga, ijodiy yondashuvni shakllantirishga xizmat qilishi tahlil qilingan. Maqolada "Insert", "Klaster", "Aqliy hujum" kabi texnologiyalarning savod o'rgatishdagi samarasi misollar asosida ko'rsatib berilgan.

### *Kalit so'zlar*

Savod o'rgatish, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, innovatsiya, mustaqil fikrlash, boshlang'ich ta'lim, ijodiy yondashuv.

### *Kirish*

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchining shaxs sifatida shakllanishida eng muhim poydevor hisoblanadi. Aynan shu davrda berilgan bilim va ko'nikmalar bolaning keyingi ta'lim jarayonida muvaffaqiyat qozonishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu bois savod o'rgatish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'ta muhim masalalardan biridir. Bugungi kunda ta'lim jarayonini takomillashtirish, o'quvchini faol ishtirokchiga aylantirish, mustaqil fikrlash va o'z fikrini bayon etish ko'nikmalarini rivojlantirish zamon talabi hisoblanadi.

### *Asosiy qism*

Yangi pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash hamda o'quvchini darsga faol jalb etishga xizmat qiladi. Interfaol metodlar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, didaktik o'yinlar va multimedia dasturlaridan foydalanish orqali darslar yanada qiziqarli va mazmunli o'tadi.

Yangi texnologiyalar yordamida o'quvchi o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda erkin ifoda etishga, mustaqil tahlil qilish va xulosa chiqarishga o'rganadi. Masalan, "Insert" texnologiyasi orqali o'quvchilar matn bilan ishlash jarayonida o'z bilimini belgilaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi. "Klaster" usuli esa yangi o'rganilgan so'zlarni tartiblash, ularni mantiqiy tizimda joylashtirish imkonini beradi. "Aqliy hujum" metodidan foydalanish orqali esa bolalarda fikrlash tezligi, erkin so'zlash va ijodiy yondashuv shakllanadi.

Shuningdek, multimedia vositalari, videodarslar va elektron resurslardan foydalanish o'quvchilarda savod o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Turli o'yin texnologiyalari, ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning til boyligini kengaytiradi, nutq madaniyatini shakllantiradi.

Pedagogik texnologiyalar g'oyasi XX asrning o'rtalarida G'arb mamlakatlarida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish zarurati ortgan davrda paydo bo'lgan. Dastlab bu tushuncha ta'limni texnik vositalar bilan boshqarish ma'nosida qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik didaktik, psixologik va metodik jihatlarni o'z ichiga olgan kompleks tizim sifatida shakllangan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, yangi pedagogik texnologiyalar milliy ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich joriy etila boshlandi. 1997-yilda qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ushbu yo'nalishdagi islohotlarning asosini tashkil etdi. B.

Blum, J. Carroll, L. Anderson, J. Bruner kabi olimlarning ta'lim jarayonini tizimli tashkil etish, o'quvchini faol subyekt sifatida ko'rish g'oyalari bu jarayonlarda nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

### ***Xulosa***

Xulosa qilib aytganda, savod o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamon talabi bo'lib, o'quvchilarning o'qish va yozish malakasini shakllantirishda, ularning ijodiy fikrlash va mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning savodli, ijtimoiy faol va raqamli dunyoga moslashgan shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Shu bois pedagoglar zamonaviy metod va texnologiyalarni chuqur o'rganib, ularni dars jarayoniga samarali tatbiq etishlari lozim.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati***

1. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". – Toshkent, 1997.
2. Hasanboyeva O., Matchonov S. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
3. Ziyamuhamedov B., Abduqodirov A. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.
4. Bruner J. The Process of Education. – Harvard University Press, 1960.
5. Anderson L. W., Krathwohl D. R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. – New York: Longman, 2001.